

Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Maktabgacha Yoshdagi Bolalarni Psixologik-Pedagogik Qo'llab Quvvatlashda Shaxsning Bilish Jarayonlarini Rivojlantirish

Burhonova Maftuna Elbek qizi¹

Annontatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish sohalari o'rganildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarida yuzaga keladigan nuqsonlari o'rganilib, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmati orqali korreksion ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari yaxshi rivojlanishi orqali qiziquvchanliklari, intiluvchanliklari va mashg'ulotlarda faolliklari kuzatildi.

Kalit so'zlar: Bilish jarayonlari, psixologik -pedagogik qo'llab quvvatlash, faoliyat, qobiliyat, rivojlanish, fiziologik xususiyatlar, so'rov metodi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy, axloqiy, va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora -tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907 son qarorini ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni, o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ta'lim tashkilotlarida psixologik-pedagogik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori qabul qilinadi.

Nima uchun bu qaror qabul qilindi? Psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash ishlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan uzviy bog'laydigan bo'lsak quyidagi maqsadlar kelib chiqadi:

- tarbiyalanuvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari orqali ularni maktabgacha tarbiya yoshidan ota-onalar bilan uzviy hamkorlikda kasb hunarga yo'naltirish
- turli yosh davrlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik-pedagogik jihatdan kuzatib borish ta'lim tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish
- maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yangi kelgan tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularning ijtimoiy realitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish
- iste'dodli va iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash, ularning individual psixologik qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart -sharoitlar yaratish shaxsning bilish jarayonlari rivojlantirish
- pedagog xodimlar, tarbiyalanuvchilar hamda ularning ota- onalarining psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali ta'minlash asosiy maqsad vazifalari hisoblanadi.

Ilk qadam o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi ya'ni 6-7yosh bolaning umumiy muhim kompensatsiyalarining asosini ham bilish kompetensiyasi tashkil etadi.

Bilish kompetensiyasi- atrofda olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim ko'nikma malaka va qadryatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish demakdir. Bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarida bilish jarayonlarining rivojlanishi asosiy o'rin egallaydi. Bilish jarayonlarining rivojlanish sohasining o'quv-faoliyati yakuniga yetganidan so'ng 6-7yoshli bola bilish jarayonlari orqali quyidagi bilimlarni egallaydi:

- bilim olishga faol qiziqishi namoyon bo'ladi
- raqamlar hisob -kitoblarni biladi va ularni hayotda qo'llaydi
- o'quv va hayotiy faoliyati uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalaniladi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishi intellektual bilim olish ko'nikmalari asosida 3 yoshu 6oylik bola predmetlarni bir belgi bo'yicha saralay oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan mashg'ulotlar faoliyat markazidagi faoliyatlar ham hammasi bilish jarayonlarining rivojlanishi uchun ko'mak beradi.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida ham bilish jarayonlari rivojlanish sohasi kichik 3ta sohaga bo'linadi:

1. Intellektual anglash malakalari
2. Elementar matematik malakalar
3. Tanqidiy bilish va samarali reflektiv faoliyat

¹ Termiz davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Bu kichik sohalar orqali bolalarda qiziqvchanlik, intiluvchanlik oshadi boshlang'ich matematik malakalarga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlari quyidagilar:

• Sezgi •	• Nutq •
• Iroda •	• Tafakkur •
• Xotira •	• Diqqat •

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi -sezgi bu borliqdagi real narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari bilan birga ta'siri natijasida ongimizga aks ettirilishidir. Sezgining fizologik asosini I.M.Sechenov va N.P. Pavlovlar o'rganishgan va ularni analizatorlar deb atashgan. Bolalar sezgi bilish jarayonlari orqali ranglarni ajrata olish masofalarni chamalash tasavvurlari va tafakkurlari rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur, nutq, diqqat umuman olganda bilish jarayonlari yaxshi rivojlanishi uchun psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash xizmatidan foydalaniladi. Ular turli yosh davrlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borishadi va ta'lim - tarbiyadagi nuqsonlarini aniqlab ularni korreksiyalashga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning birgina sezgi bilish jarayonlari o'zi zanjir tarzida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini bog'lab turadi. Agar birgina zanjir uzulsa qolganlari ham uzulib ketadi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarning sezgisi rivojlanmasa tafakkur, nutq bilish jarayonlari ham rivojlanmaydi. Psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash xizmatidan foydalangan holda bolalarning bilish jarayonlari rivojlantiriladi. Demak, birinchi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kelgan tarbiyalanuvchilar pedagog tomonidan kuzatiladi, har xil o'yinlar faoliyatlar orqali boladagi qobilyat, iste'dod va kamchiliklari o'rganiladi. O'rganilgan kamchiliklar psixolog-pedagoglar tomonidan tahlil qilinib ota onalar bilan hamkorlikda psixologik qo'llab quvvatlash ishlari amalga oshiriladi. Bolalarning shaxsiy bilish jarayonlari rivojlanishi uchun har bir maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog tarbiyachilariga shart -sharoitlar yaratilgan bo'lib, tarbiyachi ham psixolog ham o'zining ish faoliyatidan kelib chiqqan holda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Masalan kichik maktab yoshidagi bolalarning sevimli faoliyati o'yin faoliyati bo'lganligi sababli o'yin orqali har bir bolaning iste'dodi, qiziqishi yuzaga chiqadi har bir bolaning o'z qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash xizmati bolalar uchun shart -sharoitlar yaratib beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'tilayotgan mashg'ulotlarni past darajada o'zlashtira olayotgan tarbiyalanuvchilar bilan turli shakldagi so'rovnomalar, suhbatlar o'tkaziladi hamda psixologik-pedagogik tashxis qo'yish orqali muammo turi aniqlanib korreksion ishlar amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik -psixologik qo'llab quvvatlash xizmatining yana bir afzallik tomoni shundaki, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar ham jamoaviy, ham yakka tartibda ishlashni, o'zlari harakat qilishni boshlaydilar. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari uchun ham yakka va jamoaviy shakldagi suhbatlar tashkil etilib, bu suhbatlar orqali o'z farzandlari haqida ularning psixologiyasi ta'lim-tarbiyasi hamda bilish jarayonlarining qanday tarzda rivojlaniyotganini bilib olishadi.

Maktabgacha ta'lim har tomonlama sog'lom va barkamol bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa: Men bu maqolam shuni aytmoqchimanki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash orqali ularning bilish jarayonlari yuzaga chiqadi. Bir so'z bilan aytganda bolalar bilan psixolog ishlaganda ularning ochilmagan qirralari ya'ni iste'dodli bo'la turib uni yuzaga chiqara olmayotgan tarbiyalanuvchilarni iste'dod, qobilyatlarini yuzaga chiqadi ular keyin o'z ustida ishlashni boshlashadi. Ota -ona bilan hamkorlik olib borilganda farzandining qiziqishlarini o'rgana boshlaydi, birga farzandi bilan ishlaydi. Bilish jarayonlari rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi tavsiyalar"
2. Tasviriy Oyina ijodiy uyushmasi Toshkent -2019 75bet.
3. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Qayumova, Malohat A'zomava. "Maktabgacha pedagogika" Tafakkur nashriyoti Toshkent -2019 683bet
4. Z.T.Nishonova, F.N.Vahobova. S.T.Madaliyeva "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" Faylasuf nashriyoti 2013-2017 496bet.
5. I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi Toshkent -2018 30bet
6. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 2018-yil 18-iyun
7. 577-сoн 12.07.2019. O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida